



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2024–2025-yillarda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Tuman va shaharlarda tashkil etiladigan tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda 2026–2027-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida “Bolaning rivojlanish xaritasi”ni yuritish amaliyotini joriy qilsin.

4. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) 2025-yil 1-iyulga qadar:

maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirsin;

maktabga tayyorlov guruhleri va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi va muvofiqligini ta’minlasin.

5. Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) 2025-yil 1-iyulga qadar maktabgacha ta’limning davlat ta’lim

Xorazm viloyati maktabgacha va maktab talimi boshqarmasi

dasturi doirasida elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqsin va AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasiga taqdim etsin.

6. AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) 2025-yil 1-avgustga qadar:

maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o'quv-metodik materiallarni Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — Axborot tizimi)da joylashtirsin hamda ushbu materiallardan erkin va bepul foydalanish imkoniyatini yaratsin;

axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratsin va unda "Bolaning rivojlanish xaritasi" ma'lumotlarining doimiy ravishda joylashtirilishini ta'minlasin.

7. Farmon bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi-metodist lavozimi negizida amaldagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari lavozimini joriy etilganligi inobatga olinsin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda bir hafta muddatda maktabgacha ta'lim tashkilotining direktor o'rinbosari lavozimining malaka tavsifi va lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqsin va tasdiqlashga kiritsin.

9. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev), Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaldagi namunaviy shtatlar jadvaliga tegishli o'zgartirishlar kiritish choralari ko'rsin.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaldagi shtatlar jadvaliga namunaviy shtatlar jadvali asosida tegishli o'zgartirish kiritsin hamda ro'yxatdan o'tkazilishi;

yangi tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining direktor o'rinbosari lavozimiga tarbiyachi-metodist lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xodimlarni vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan malaka tavsiflari hamda qonunchilik talablariga muvofiq mehnat shartnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi;

2-ilovada tasdiqlangan tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o'rinbosarlariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari huzuridagi Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armalari hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo'shimcha har oylik ustama haq to'lanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

11. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Sharipov) Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda uch oy muddatda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydigan maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari "Metodik mahorat soati" va "Metodik mahorat kuni" tadbirlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tarkibini tasdiqlasin.

13. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev):

a) 2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etsin.

Bunda,

mobil malaka oshirish xizmatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlari tomonidan 4 ta auditoriya ko'rinishidagi avtobuslar negizida tashkil etilishi;

nodavlat va davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun mobil malaka oshirish xizmatlari pullik asosda ko'rsatilishi;

avtobuslarni jihozlash "Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko'maklashish" loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi;

avtobuslar haydovchilarining ish haqi, yoqilg'i-moylash va boshqa xarajatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlarining pullik xizmatlaridan tushgan mablag'lari hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

b) 2025-yil 1-martga qadar yangi ishlab chiqilgan kasbiy standart asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirsin.

14. Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi (O.Zokirov), Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) ikki oy muddatda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bir oy muddatda har bir tuman (shahar) kesimida tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta'lim guruhi tashkil etiladigan bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatini vazirlikning Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiga taqdim etsin.

16. Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (R.To'rayev):

2024-yil 1-dekabrda qadar taqdim etilgan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatini o'rganib chiqib tasdiqlash uchun rahbariyatga kiritсин;

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar inklyuziv ta'lim guruhi tashkil etiladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin;

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlarini faoliyatini yo'lga qo'ysin.

17. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov):

2025-yil 1-yanvarga qadar davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bo'sh turgan yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazsin;

2025-yil 1-aprelga qadar davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bo'sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha tanlov o'tkazsin.

18. Tegishli mas'ul departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari har oyning 28-sanasiga qadar Farmon ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlar hamda ularning asoslantiruvchi hujjatlarini ilova qilgan holda muvofiqlashtiruvchi vazir o'rinbosarlari bilan kelishib Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamentiga taqdim etsin.

19. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) har oy yakunida Farmon ijrosi bo'yicha umimlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin.

20. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov) uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

21. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 3-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tasarrufidagi ekperimental davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy ustavlarini tasdiqlash to'g'risida" 532-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

22. Axborot xizmati (D.Sobirova) Farmonda belgilangan tegishli tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

23. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning departament, boshqarma va bo'limlari, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta'minlasin.

24. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil " 3 " - oktabr,
323 -son



X.Umarova